

S.Djurayev, R.Tursunov, B.Muxitdinov

**YONG'INNI AVTOMATIK TARZDA O'CHIRISH VA YONG'IN
SIGNALIZATSIYASI QURILMALARINI MONTAJ QILISH, SOZLASH,
TA'MIRLASH HAMDA ULARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH
FAOLIYATINI BOSHLAGANLIK YOKI TUGATGANLIK HAQIDA
XABARDOR QILISH BO'YICHA USLUBIY
TAVSIYANOMA**

Toshkent – 2022

UDK 614.8.084

O‘zbekiston Respublikasi FVV Yong‘in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy – tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

Mualliflar: S.Djurayev, R.Tursunov, B.Muxitdinov

O‘zbekiston Respublikasi FVV YoXvaFV ITI Ilmiy-texnik kengashi tomonidan muhokama qilinib, bosmalanishga tavsiya etildi (2022 yil 24 maydagi 2-son bayoni).

Ushbu uslubiy tavsiyanoma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 24 avgustdagi PF-6044-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasining “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida” 2021 yil 14 iyuldagi O‘RQ-701-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organi xabardor qilish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida” 2022 yil 25 fevral kunidagi 88-son qarori talablari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, yuridik shaxslarga “Litsenziya” axborot tizimi yordamida xabardor etish tartibidan mustaqil ravishda o‘tish jarayonida hamda faoliyatni amalga oshirish davrida duch kelishi mumkin bo‘lgan to‘siq va muammolarni hal etishlariga xizmat qiladi.

© S.Djurayev, R.Tursunov, B.Muxitdinov, 2022

KIRISH

So‘nggi yillarda respublikada ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, eskirgan, zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni takomillashtirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo‘nalishlarda olib borilgan ishlar litsenziyalash va ruxsat berish tizimini liberallashtirish hamda institutsional isloh qilishning yangi bosqichini boshlash uchun mustahkam asos yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil yanvar oyida Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida tadbirkorlarni ko‘p qiynaydigan soha – litsenziyalash va ruxsatnomalar berish tartiblarini jiddiy o‘zgartirish haqida topshiriqlar berilgan edi.

Topshiriqqa asosan tegishli vazirliklar tomonidan soha mutaxassislari va tadbirkorlarning takliflari asosida respublikada biznes muhitni yaxshilashga qaratilgan tizimli ishlar olib borildi.

Mana shunday ishlardan biri bu litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini takomillashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-avgustidagi PF-6044-son Farmoni hisoblanadi. Ushbu Farmon bilan sohada ilg‘or islohotlar amalga oshirilishi boshlandi. Litsenziyalanadigan va ruxsatnoma olish talab etiladigan faoliyat yo‘nalishlari soni sezilarli ravishda qisqartirilib, sohaga ilk marotaba **xabardor qilish tartibi** alohida institut sifatida joriy etildi.

Mazkur Farmon bilan 2021-yil 1-yanvardan boshlab, “Yong‘inga qarshi avtomatika vositalarini, qo‘riqlash, yong‘indan darak beruvchi va yong‘indan saqlash signalizatsiyalarini montaj qilish, sozlash, ta‘mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish” bo‘yicha litsenziyaviy faoliyat bekor qilinib, o‘rniga “Yong‘inni avtomatik tarzda o‘chirish va yong‘in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta‘mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabardor qilish”

tartibi joriy etildi. Shuningdek, Farmon bilan **114 ta** litsenziyalar va ruxsatnomalar bekor qilindi, **33 ta** faoliyat turlari xabardor qilish tartibiga o'tkazildi.

Bundan tashqari, 2021-yil 14-iyul kuni O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida" O'RBQ-701-son Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonun bilan, vakolatli organlarni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan **33 ta** faoliyat turlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlangan.

(Ma'lumot uchun: Qonun qabul qilinishi munosabati bilan ushbu sohaga oid 2 ta Qonun, 1 ta Oliy Majlis qarori, 2 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 100 ga yaqin Hukumat qarorlari o'z kuchini yo'qotdi)

Vakolatli organlarni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlarini tartibga solish maqsadida 2022-yil 25-fevral kuni Vazirlar Mahkamasining "Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor qilish tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi 88-son qarori qabul qilindi.

I-bob. Umimiy qoidalar

1. Ushbu tavsiyanoma xabardor qilish talab etiladigan **"Yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabardor qilish"** faoliyati bilan shug'ullanish istagi bo'lgan yuridik shaxslarga "Litsenziya" axborot tizimidan foydalangan holda faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik haqida vakolatli organga (Favqulodda vaziyatlar vazirligi) xabarnoma yuborish va to'ldirish ko'nikmalarini shakllantirish hamda faoliyatning talab va shartlari bilan tanishtirish usullari o'z aksini topgan.

2. Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan yuqoridagi faoliyat turi bilan xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organni xabardor qilmasdan shug'ullanish taqiqlanadi.

3. Ushbu uslubiy tavsiyanomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

xabardor qiluvchilar – vakolatli organga xabarnoma yuborgan va xabarnomalar reestriga kiritilgan yuridik shaxslar;

xabarnoma – xabardor qilish tartibida faoliyatni (harakatlarni) amalga oshirishni boshlash (tugatish) uchun xabardor qiluvchilar tomonidan vakolatli organga yuboriladigan ma'lumotlar;

vakolatli organ — tegishli faoliyat turi bo'yicha xabarnomalarni qabul qiluvchi, xabardor qilish tartibi amalga oshiriladigan faoliyat turini tartibga soluvchi va xabarnomalar reestrini yurituvchi davlat organi (Favqulodda vaziyatlar vazirligi);

“Litsenziya” axborot tizimi (keyingi o'rinlarda – “Litsenziya” AT) — litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari bilan bog'liq barcha jarayonlarni qamrab olgan, idoralararo elektron o'zaro hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'lgan tizim;

tasdiqnoma - xabardor qiluvchilar o'z faoliyatini boshlagani yoki tugatgani haqida vakolatli organni xabardor qilganini tasdiqlovchi, “Litsenziya” AT orqali avtomatik tarzda shakllantiriladigan, matritsali shtrix kodga (QR-kod) ega bo'lgan va ushbu qo'lanmaga **1-ilovada** keltirilgan namunaviy shakldagi elektron hujjat;

faoliyatni amalga oshirishning talablari va shartlari – xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi bilan shug'ullanishda xabardor qiluvchilar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-son qarori bilan tasdiqlangan yagona Nizom 9-ilovasida keltirilgan pasportda belgilangan talablar va shartlarning majmui (keyingi o'rinlarda—pasport, tavsiyanomaning **2-ilovasida** keltirilgan);

xabarnomalar reestri – faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshirayotgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, tugatilgan xabardor qiluvchilar

to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan vakolatli organlarning ma'lumotlar bazalari;

shikoyat – vakolatli organning harakatlari (harakatsizligidan) norozi bo'lgan holda, xabardor qiluvchilarning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish to'g'risidagi talab bayon etilgan murojaati.

4. Xabarnoma "Litsenziya" AT yoki YAIDXP orqali dam olish va bayram kunlaridan qat'i nazar, har kuni 24 soat davomida yuborilishi mumkin.

II-bob. Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari

5. **"Yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabardor qilish"** tartibida amalga oshiriladigan faoliyatga doir talablar va shartlar quyidagilar hisoblanadi:

a) pasportning 9-bandida keltirilgan talablar va shartlarga rioya etilishi shartligi hamda ularni bajarish bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga olish;

b) xabarnomada ko'rsatilgan axborotning ishonchliligini ta'minlash;

v) xodimlar bilan yangi mehnat shartnomalari tuzilganligi, shartnomalarga o'zgartirishlar kiritilganligi va ularni bekor qilish holatlarini, shuningdek, amaldagi mehnat shartnomalari to'g'risidagi axborotni "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksida majburiy ro'yxatdan o'tkazish;

g) xabardor qiluvchilarning nomi, yuridik manzili o'zgarganligi ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng yoki filial va vakolatxona ochilgandan so'ng vakolatli organga **o'n ish kuni** ichida "Litsenziya" AT yoki YAIDXPdagi shaxsiy kabineti orqali xabar berish.

6. Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatga (harakatlarga) doir talablar va shartlarni qo'pol ravishda buzishga doir holatlar pasportda belgilangan.

III-bob. Xabarnoma yuborish va uni hisobga olish tartibi

7. Xabardor qiluvchi (uning nomidan ish yuritishga vakolatli shaxs) vakolatli organga (Favqulodda vaziyatlar vazirligi) elektron raqamli imzodan foydalangan holda maxsus "Litsenziya" AT (license.gov.uz) yoki YAIDXP orqali **"Yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini boshlash yoki tugatish uchun"** xabarnoma yuboradi.

8. Xabarnomani yuborishda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan faoliyat turi yoki uning bir qismi tanlanadi va tegishli faoliyat turi uchun pasportning 6-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlar kiritiladi (yuklanadi).

Bunda xabarnomaga ilova qilinadigan (yuklanadigan) tegishli hujjatlar elektron shaklda (PDF, PNG yoki JPEG formatda) bo'lishi kerak. Xabarnomalarni "Litsenziya" AT yordamida yuborish ketma-ketligi ushbu tavsiyanomaga **3-ilovada** keltirilgan tartib orqali amalga oshiriladi.

*(Ma'lumot uchun: xabardor qiluvchilarning doimiy ro'yxatida bo'lgan xodimlarning tegishli ixtisoslik bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan yoki malakasini oshirganligi to'g'risida sertifikat yoki guvohnomalarni beruvchi tashkilotlar ro'yxati **License.gov.uz** sayti "**reestr**" sahifasi, "**nodavlat kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash**" bo'limida joylashtirilgan.)*

9. Xabardor qiluvchilar "Yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini boshlash uchun" xabarnomani yuborishda pasportning 9-bandida nazarda tutilgan talablar va shartlarga muvofiq ekanligini tasdiqlashi lozim.

10. Xabardor qilish talab etiladigan faoliyatni amalga oshirish uchun bazaviy hisoblash miqdorining **50 (ellik) foiz** miqdorida yig'im undiriladi.

11. Xabardor qiluvchilar vakolatli organga yuborilgan xabarnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgardir. Xabarnomaga kiritilgan ma'lumotlar "Litsenziya" AT orqali idoralararo hamkorlik tizimlarida mavjud ma'lumotlar asosida avtomatik tarzda taqqoslanadi va o'rganiladi.

12. Xabarnoma quyidagi hollarda avtomatik tarzda qabul qilinmaydi:

a) noto'g'ri yoki yolg'on axborot kiritilganligi "Litsenziya" AT orqali aniqlanganda;

b) ushbu qo'lanmaning 10-bandida nazarda tutilgan yig'im to'lanmaganda;

v) faoliyatni xabardor qilish tartibida amalga oshirish uchun belgilangan talablar va shartlarga rioya etilganligi hamda ular bajarilganligi tasdiqlanmaganda;

g) agar xabardor qiluvchilar avval xabarnomalar reestriga aynan o'sha faoliyat bo'yicha kiritilgan bo'lsa va ularning faoliyati amalga oshirilayotgan bo'lsa;

d) vakolatli organ yoki sud tomonidan xabardor qiluvchilarning faoliyati muayyan muddatga to'xtatib turilganda;

e) xabardor qiluvchilar tomonidan tegishli faoliyatni amalga oshirish sudning qaroriga asosan taqiqlanganda.

Ushbu bandda ko'rsatib o'tilgan holatlardan tashqari boshqa asoslar bilan xabarnomani qabul qilmaslikka yo'l qo'yilmaydi.

13. Belgilangan talablarga rioya qilingan holda yuborilgan xabarnoma "Litsenziya" AT maxsus elektron tizim orqali avtomatik tarzda qabul qilinadi va xabardor qiluvchiga xabarnoma qabul qilinganligi to'g'risida **QR-kodga** ega tasdiqnoma xabardor qiluvchining shaxsiy kabinetida avtomatik tarzda shakllanadi.

14. Tasdiqnoma yuborilgan xabardor qiluvchilar to'g'risidagi axborot xabarnomalar reestrda avtomatik ravishda shakllantiriladi.

IV-bob. Faoliyatni nazorat qilish tartibi

15. Xabarnomalar reestriga kiritilgan hamda faoliyatini amalga oshirayotgan xabardor qiluvchilarning belgilangan talablar va shartlarga rioya etishi vakolatli organ tomonidan nazorat qilinadi.

16. Nazorat qilish quyidagi shakllar bo'yicha amalga oshiriladi:

a) "Litsenziya" AT orqali xabardor qilish talablari hamda shartlariga rioya etilishi bo'yicha **masofaviy monitoring**;

b) xabardor qilish talablari hamda shartlariga rioya etilishini asoslar mavjud bo'lgan taqdirda va tekshiruvlarni muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ (Biznesombudsmen) bilan belgilangan tartibda kelishilganda **joyiga chiqqan holda tekshirish orqali**;

v) xabardor qiluvchilarning faoliyati bilan bog'liq **statistik axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish orqali**.

17. Vakolatli organ masofaviy monitoringni amalga oshirish jarayonida xabardor qiluvchilar tomonidan pasportning 9-bandida belgilangan talablar va shartlarni buzish holatlari aniqlangan taqdirda, **o'n ish kunidan** kam bo'lmagan muddatda aniqlangan holatlarni bartaraf etish yuzasidan xabardor qiluvchilarga "Litsenziya" ATdagi shaxsiy kabinetiga ogohlantirish xati yuboriladi. Bunda xabardor qiluvchilarning faoliyatini to'xtatishga yo'l qo'yilmaydi.

18. Ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddatda xabardor qiluvchilar aniqlangan holatlarni bartaraf etmasa va bu haqda vakolatli organni "Litsenziya" AT orqali xabardor qilmasa, vakolatli organ joyiga chiqqan xolda tekshirishi mumkin. Joyiga chiqqan holda tekshirish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

a) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda **"xavfni tahlil etish"** tizimi natijalari;

b) jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, **jamoatchilik nazorati sub'ektlarining murojaatlari**;

v) “Litsenziya” AT orqali xabarnoma yuborish sohasidagi qonunchilik hujjatlarini buzishga doir **jismoniy shaxslarning ma’lumotlari**.

19. Tavsiyanomaning 18-bandida nazarda tutilgan tekshirishlar belgilangan tartibda Biznesombudsmen bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Xabardor qilish talablari va shartlariga rioya etilishi joyga chiqqan holda **o’n kungacha** bo’lgan muddatda tekshiriladi.

V-bob. Xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatini to’xtatish, qayta tiklash va tugatish tartibi

§-1. Faoliyatni to’xtatish

20. Xabardor qiluvchining xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyati (harakatlari) quyidagi asoslarga ko’ra muayyan muddatga to’xtatib turiladi:

a) vakolatli organning tashabbusiga binoan (pasportning 9-bandida nazarda tutilgan talablar va shartlarga amal qilishi yuzasidan);

b) xabardor qiluvchining xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatini (harakatlarini) tugatish to’g’risidagi ish sudda ko’rib chiqilganda, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgunga qadar.

21. Vakolatli organ (uning hududiy boshqarmalari) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qiluvchilarning faoliyatini tekshirishi davrida ushbu faoliyatini to’xtatish asoslari aniqlangan taqdirda dalolatnoma rasmiylashtiradi va xabardor qiluvchilar (yoki ularning vakili) dalolatnoma bilan tanishtiriladi (imzosi olinadi). Agarda xabardor qiluvchilar (yoki ularning vakili) dalolatnoma bilan tanishishdan bosh tortgan taqdirda, dalolatnomaga bu haqda tegishli ma’lumot kiritilib, xolis guvohlar ishtirokida rasmiylashtiriladi.

22. Rasmiylashtirilgan dalolatnoma elektron shaklda (PDF formatda) vakolatli organ tomonidan **bir ish kuni** ichida “Litsenziya” AT orqali xabardor qiluvchilarning shaxsiy kabinetiga yuboriladi. Bunda dalolatnoma yuborilgan kundan xabardor qiluvchilar u bilan tanishtirilgan hisoblanadi.

23. Dalolatnoma yuborilgan kundan boshlab **bir ish kuni** ichida vakolatli organning birinchi rahbari xabardor qiluvchilarning faoliyatini **o'n ish kundan** ortiq bo'lmagan muddatga to'xtatish va ushbu muddatda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan qaror qabul qiladi.

24. Qabul qilingan qaror shu kunning o'zida "Litsenziya" AT orqali xabardor qiluvchilarning shaxsiy kabinetiga yuboriladi va xabarnomalar reestrda faoliyati to'xtatilganligi to'g'risida tegishli ma'lumot kiritilib, faoliyat muayyan muddatga to'xtatilgan hisoblanadi.

25. Xabardor qiluvchilar o'zining xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni muayyan muddatga to'xtatib turish to'g'risidagi qaror kelib tushgan kundan e'tiboran qarorda ko'rsatilgan muddatda aniqlangan holatlarni bartaraf etishi va asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda "Litsenziya" AT orqali vakolatli organga yuborishi lozim.

26. Vakolatli organ (uning hududiy boshqarmalari) kamchiliklar bartaraf etilganligi to'g'risidagi xabarni va bu haqda asoslantiruvchi hujjatlarni olgandan so'ng **besh ish kuni** ichida ma'lumotlarni tahlil qiladi, zaruratga bo'lganda joyiga chiqib o'rganadi va bu haqda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

27. Agar xabardor qiluvchilar kamchiliklar bartaraf etilganligi to'g'risida xabarni va asoslantiruvchi hujjatlarni taqdim etgandan so'ng **besh ish kuni** ichida vakolatli organ faoliyatni qayta tiklash yoki tiklashni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilmasa, xabardor qiluvchilarning faoliyati qayta tiklangan hisoblanadi va xabarnomalar reestrda avtomatik ravishda bu haqda ma'lumot chiqadi.

§-2. Faoliyatni qayta tiklash

28. Tavsiyanomaning 26-bandiga asosan dalolatnoma rasmiylashtirilgandan so'ng **bir ish kuni** ichida vakolatli organ:

a) xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qiladi;

b) xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni qayta tiklash to'g'risidagi qarorning elektron shaklini xabardor qiluvchilarning "Litsenziya" AT orqali shaxsiy kabinetiga orqali yuboriladi;

v) xabardor qiluvchilarning faoliyati qayta tiklanganligi to'g'risidagi ma'lumotni xabarnomalar reestriga kiritiladi.

§-3. Faoliyatni tugatish

29. Xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyati quyidagi holatlarda tugatiladi:

a) xabardor qiluvchilar tomonidan o'z faoliyatini tugatish to'g'risida vakolatli organga yuborgan xabarnomaga;

b) ushbu qo'lanmada nazarda tutilgan talablar va shartlar buzilgan taqdirda, sudning qaroriga asosan.

30. Xabardor qiluvchilar o'z faoliyatini tugatishi to'g'risida "Litsenziya" AT shaxsiy kabineti orqali soddalashtirilgan tartibda vakolatli organga xabarnoma yuboradi. Bunda alohida ma'lumot va hujjatlarni "Litsenziya" AT yoki YAIDXPga kiritish talab etilmaydi hamda xabarnoma yuborilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

31. Faoliyatni (harakatlarni) tugatish to'g'risidagi xabarnoma yuborilgandan so'ng, xabardor qiluvchilarning faoliyati xabarnomada ko'rsatilgan sanadan tugatilgan hisoblanadi va bu haqda xabarnomalar reestrda avtomatik tarzda belgi qo'yiladi.

32. Xabardor qiluvchilarning faoliyatni tugatish to'g'risidagi ariza sudga vakolatli organ tomonidan quyidagi hollarda beriladi:

a) xabardor qiluvchilar tomonidan faoliyatni boshlash to'g'risida yuborilgan xabarnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning yolg'on yoki noto'g'ri ekanligi aniqlanganda;

b) pasportlarda belgilangan talablar va shartlar buzilishiga olib kelgan kamchiliklar xabardor qiluvchilar tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etilmaganda;

v) belgilangan talablar va shartlarni muntazam ravishda (bir yil davomida ikki va undan ortiq marta) yoki bir marta qo'pol ravishda buzganda, agar bu qoidabuzarliklar fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilishiga, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatleri poymol qilinishiga, jamoat xavfsizligi holati yomonlashishiga va atrof muhitga zarar yetkazilishiga olib kelgan bo'lsa.

Ushbu hollarda vakolatli organ ushbu holat yuzasidan mazkur tavsiyanomaning 21-bandiga asosan dalolatnoma rasmiylashtiradi va **bir ish kuni** ichida xabardor qiluvchilarning "Litsenziya" AT orqali xabardor qiluvchining shaxsiy kabinetiga yuboradi.

33. Dalolatnoma rasmiylashtirilgandan so'ng, vakolatli organ **besh ish kuni** ichida sudga xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibidagi faoliyatni tugatish haqida da'vo arizasini taqdim etadi.

Sudga taqdim etilgan da'vo arizasining elektron shakli (PDF formatini) "Litsenziya" AT orqali xabardor qiluvchilarning shaxsiy kabinetiga yuborilishi hamda bu haqda xabarnomalar reestriga tegishli ma'lumotlar kiritiladi.

34. Vakolatli organ **besh ish kuni** ichida sudga xabardor qiluvchilarning faoliyatini tugatish haqida da'vo arizasini kiritmasa, xabardor qiluvchilarning faoliyati qayta tiklangan hisoblanadi va xabarnomalar reestrda avtomatik ravishda bu haqda ma'lumot chiqadi.

35. Faoliyatni tugatish to'g'risidagi da'vo arisasi sudda ko'rib chiqilib, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgunga qadar xabardor qiluvchilarning faoliyati tavsiyanomaning 20-bandi b) kichik bandiga ko'ra muayyan muddatga to'xtatib qo'yiladi.

36. Vakolatli organ ushbu tavsiyanomaning 32-bandida nazarda tutilgan holatlar yuzasidan sudga taqdim etadigan arizasida xabardor qiluvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarning ijtimoiy ahamiyatidan kelib

chiqqan holda **uch oygacha bo'lgan muddatga** xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatini taqiqlash to'g'risida talab qo'yishi mumkin. Bunda xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni amalga oshirishni taqiqlashning aniq muddati sud tomonidan qonunda belgilangan tartibda aniqlanadi.

37. Sudning faoliyati tugatilganligi to'g'risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng, vakolatli organ **uch ish kuni** ichida bu haqda xabarnomalar reestriga tegishli ma'lumotni kiritadi.

VI-bob. Vakolatli organ va ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish va uni ko'rib chiqish tartibi

38. Xabardor qiluvchilar O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni talablarga muvofiq vakolatli organ hamda uning mansabdor shaxslarining o'z faoliyatiga taalluqli bo'lgan harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilishga haqli.

39. Xabardor qiluvchilar tomonidan yuborilgan shikoyatlar Apellatsiya kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

40. Xabardor qiluvchilar shikoyat yuzasidan Apellatsiya kengashi tomonidan qabul qilingan qaror natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishga haqli.

VII-bob. Yakunlovchi qoidalar

41. Xabardor qilish sohasida yagona nizomda belgilangan talablar va shartlarini buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

42. Faoliyat uchun belgilangan talablar va shartlar buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarlik uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish nazarda tutilishi mumkin.

43. Vakolatli organ xabardor qiluvchilarga nisbatan qo'llagan javobgarlik choralari, shuningdek, xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni tugatish to'g'risidagi ariza sud tomonidan qanoatlantirilmagan taqdirda, xabardor qiluvchilarga keltirgan zararlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qoplaydi.

44. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy boshqarmalari "Litsenziya" AT orqali xabardor qilish sohasida yagona nizomda belgilangan talablar va shartlar bajarilishini doimiy monitoring qilib boradi.

Uslubiy tavsiyanomaga
1-ilova

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАВҚУЛЛОДА ВАЗИЯТЛАР ВАЗИРЛИГИ
ХАБАРНОМА ҚАБУЛ ҚИЛИНГАНЛИГИ ТУҒРИСИДА

ТАСДИҚНОМА

№ 021108

“MAX IT” МЧЖ

Ёнгинни автоматик тарзда ўчириш ва ёнгин сигналлашчи қурилмаларини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш

ТАСДИҚНОМА РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
Х-141414



СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
XXX XXX XXX

Жойлашган манзили (почта манзили)
Тошкент шаҳар, Янги хаёт тумани, Уйсозлар кўчаси, 4-уй, 2-хонадон

ФАОЛИЯТ АМАЛГА ОШИРИЛАДИГАН МАНЗИЛ
Тошкент шаҳар, Янги хаёт тумани, Уйсозлар кўчаси, 4-уй, 2-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазири

09.02.2022
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Хабарнома қабул қилинганлиги туғрисида Тасдиқнома № 021108

ФАОЛИЯТ ТУРИ

Ёнгинни автоматик тарзда ўчириш ускуналарини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш фаолияти

Ёнгин сигналлашчи қурилмаларини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш фаолияти

Ёнгинни автоматик тарзда ўчириш ва ёнгин сигналлашчи қурилмаларини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш фаолияти ёки унинг бир қисми

Uslubiy tavsiyanomaga 2-ilova

Ёнгинни автоматик tarzda ўчирish va ёнгини сигналizatsiyasi qurilmalari montaj qilish, sozlash, taъmirlash hamda ularga texnik xizmat kўrsatish faoliyatining PАСПОРТИ

1. Хабарнома номи:	Ёнгинни автоматик tarzda ўчирish va ёнгини сигналizatsiyasi qurilmalari montaj qilish, sozlash, taъmirlash hamda ularga texnik xizmat kўrsatish faoliyatining PАСПОРТИ
2. Хабардор қилиш тартибida амалга оширилadigan фаолият гуруҳлари:	Ёнгинни автоматик tarzda ўчирish va ёнгини сигналizatsiyasi qurilmalari montaj qilish, sozlash, taъmirlash hamda ularga texnik xizmat kўrsatish
3. Хабардор қилувчи тоифаси:	Юридик шахс
4. Хабарномани қабул қилувчи ваколатли орган(лар):	Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги
5. Хабарномани юборish тартиби:	«Лицензия» АТ ёки Ягона интерактив давлат хизматлари портали
6. Хабарномани юборish учун талаб этиладиган маълумотлар:	<p>а) юридик шахс номи ва ташкилий-хуқуқий шакли, СТИР;</p> <p>б) почта ҳамда электрон почта манзили;</p> <p>в) юридик шахс раҳбарининг мобил телефон рақами, фаолиятни амалга ошириш жойининг телефон рақами (мавжуд бўлган тақдирде);</p> <p>г) банк реқвизитлари (ҳисобварағи, банк коди);</p> <p>д) фаолият амалга оширилadigan жой манзили (манзиллари, кадастр рақами);</p> <p>е) фаолият билан шуғулланувчи шахснинг (раҳбарининг) тегишли йўналиш бўйича олий маълумотга, «муҳандислик» йўналиши бўйича камида уч йил иш стаж ва махсус тайёргарликка эга бўлганлиги тўғрисида маълумотлар;</p> <p>фамилияси, исми, отасининг исми (агар мавжуд бўлса);</p> <p>паспорт рақами, серияси ёки идентификация ID-картаси рақами; ЖШШИР;</p> <p>телефон рақами;</p> <p>маълумот тўғрисидаги диплом ёки хорижий давлатда таълим олганлик ҳақидаги ҳужжатни тан олиш тўғрисидаги гувоҳнома рақами ва санаси;</p> <p>ишлар раҳбарининг тегишли ихтисослик бўйича махсус тайёргарликдан ўтгани ёки малака оширганлиги тўғрисидаги ҳужжатнинг (сертификат, гувоҳнома ва бошқа) PDF ёки JPEG форматдаги нусхаси;</p> <p>е) фаолият билан шуғулланувчи иш бажарувчиларининг маълумоти: фамилияси, исми, отасининг исми (агар мавжуд бўлса); паспорт рақами, серияси ёки идентификация ID-картаси рақами; ЖШШИР;</p> <p>телефон рақами;</p> <p>маълумот тўғрисидаги диплом ёки хорижий давлатда таълим олганлик ҳақидаги ҳужжатни тан олиш тўғрисидаги гувоҳнома рақами ва санаси</p> <p>иш бажарувчиларининг тегишли ихтисослик бўйича махсус тайёргарликдан ўтгани ёки малака оширганлиги тўғрисидаги ҳужжатнинг (сертификат, гувоҳнома ва бошқа) PDF ёки JPEG форматдаги нусхаси (қамда 2 нафар ходимнинг маълумотлари киритилadi).</p>

7. Хабардор қилувчи киритган маълумотлар текширилиши лозим бўлган давлат органларининг ахборот тизимлари (маълумотлар):	Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги; Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги; Давлат солиқ қўмитаси; Давлат хизматлари агентлиги.
8. Хабарномани юборish учун туъналadigan йиғим миқдори:	Базавий ҳисоблаш миқдорининг 50 фоизи
9. Хабардор қилиш тартибida амалга оширилadigan фаолиятнинг талаблари ва шартлари:	<p>а) юридик шахснинг доимий штатida электроника ва асбозлик, информатика ва ахборот технологиялари ва электротехника соҳасida «муҳандислик» йўналиши бўйича олий маълумотга, шунингдек, «муҳандислик» йўналиш бўйича камида уч йил иш стажига ҳамда ёнгинни автоматик tarzda ўчирish va ёнгини сигналizatsiyasi qurilmalari montaj qilish, sozlash, taъmirlash ва улarga texnik xizmat kўrsatish йўналишлари бўйича махсус тайёргарликка эга бўлган ишлар раҳбарининг мавжуд бўлиши;</p> <p>б) ишлар раҳбари тегишли ихтисослик бўйича ҳар тўрт йилда камида бир мартаба махсус тайёргарликдан ўтиб малакасини ошириши ва буни тасдиқловчи тегишли ҳужжатга эга бўлиши;</p> <p>в) ёнгини автоматик tarzda ўчирish va ёнгини сигналizatsiyasi qurilmalari montaj qilish юзасидан топширилган объеклар ҳисобини (ресурсини) олиб бориш ва уларни йиғилтириш; бутун даярда лойиҳаларини ва бошқа ҳужжатларнинг (ёки уларнинг нусхаларининг) саклашини таъминлаши;* г) иш бажарувчилар қуйидаги тегишли малака, касб-хунар, техник маълумот(га) ёки йўналиш бўйича махсус курсларни тугатганлиги тўғрисида сертификатга эга бўлишлари шарт**;</p> <p>ёнгини автоматик tarzda ўчирish, монтаж қилиш, созlash, таъмирlash ҳамда улarga texnik xizmat kўrsatish йўналиши бўйича - қўлда электр пайвандовчи (таъ билан пайвандловчи) ёки санитария-техник ускуналарни монтаж қилувчи 4-разряддан past бўлмаслиги;</p> <p>ёнгини сигналizatsiyasi qurilmalari montaj qilish, sozlash, taъmirlash ҳамда улarga texnik xizmat kўrsatish йўналиши бўйича - электроника ва электротехника соҳасida 3-разряддан past бўлмаслиги;</p> <p>д) юридик шахс доимий штатida бўлган ёки айрим ишларни бажариш учун ўзаро шартнома тузиш орқали жалб этиладиган субўдрат ташкилоти мутахасссининг тегишли касб-хунар ёки техник маълумоти ва малакаси бўйича разрядини кўрсатиб ўтши; е) хабардор қилиш тартибidaги фаолиятни амалга ошириш учун қуйидаги моддий-техник базa, асбоб-ускуналар ва бошқа техник воситаларнинг мавжуд бўлиши;**</p> <p>комбинацияшрилган прибор (қурилма маркаси кўрсатилсин); мегометр (қурилма маркаси кўрсатилсин); шумомер (қурилма маркаси кўрсатилсин); электр каварлагич (электролаъныйк); электр перфоратор; электр пирмадаста (электродрел); чилангар асбоблари тўплами; электр монтаж асбоблари тўплами; монтаж қилувчининг каскеси; монтаж қилувчининг белбони; нарвон;</p> <p>икки ёққа оchildиган нарвон; компрессор (ёнгинни автоматик tarzda ўчирish faoliyatiga учун татбиқ этиладиг); лойиҳа-смета ҳужжатларининг саклаш учун сейф;</p>

		<p>20 кв.м.дан кам бўлмаган хизмат хонаси; 20 кв.м.дан кам бўлмаган асбоб-ускуналарни ва техник воситаларни сақлаш учун хона ёки махсус ажратилган жой. Бунда ўлчаш воситалари метрологик текширув (қиёслаш) натижалари бўйича мувофиқлик сертификатиغا эга бўлиши ҳамда ушбу сертификат муддатлари амалда бўлиши лозим; ё) хабардор қилувчи томонидан ёнғинни автоматик тарзда ўчириш ва ёнғин сигнализацияси қурилмаларини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ва уларга техник хизмат кўрсатиш фаолияти тури билан шуғулланишда, хабардор қилиш соҳасидаги қонунчилик ҳужжатларига, норматив ҳужжатлар ва стандартлар талабларига риоя этиши ва қуйидаги техник ҳужжатларнинг мавжуд бўлиши: РДПБ 01-001:2007 «Автоматик ёнғин ўчириш қурилмалари. Ўрнатиш талаблари. Ишларни бажариш ва қабул қилиш қоидалари»; РДПБ 01-002:2007 «Ёнғиндан дарак бериш қурилмалари. Ўрнатиш талаблари. Ишларни бажариш ва қабул қилиш қоидалари»; РДПБ 01-003:2008 «Ёнғин автоматикаси қурилмалари. Техник хизмат кўрсатиш ва режали-огоҳлантирувчи таъмирлаш ишлари»; РДПБ 01-004:2010 «Ёнғин ўчириш қурилмасининг, ёнғин ва кўриқлаш хабар жойларининг график шартли белгиланиши»; ШНК 2.04.09-2007 «Бино ва иншоотларнинг ёнғин автоматикаси»; ж) ишларни бажариш вақтида ишлатиладиган маҳсулотлар ва материаллар лойиҳанинг ўзига хос хусусиятларига, давлат стандартларига, техник шартларга мувофиқ ҳамда тегишли сертификатларга ва техник паспортларга эга бўлиши; з) хабардор қилувчи томонидан объектларда ўрнатилган ёнғинни автоматик тарзда ўчириш, ёнғин сигнализация қурилмалари тўғрисидаги ахборотларнинг, шунингдек, объектни кўриқлаш ва унинг хавфсизлигини таъминлаш тизими тўғрисида хабардор қилиш фаолиятини амалга ошириш жараёнида маълум бўлиб қолган бошқа маълумотларни муҳофаза қилишга йўналтирилган чора-тадбирларнинг кўрилиши; и) қурилмаларни монтаж қилиш жараёнида буюртмачи ва Давлат ёнғин назорати органлари билан келишмасдан, лойиҳавий ечимлар ёки кўрик далолатномасидан четга чиқиш ман этилади; й) ёнғинни автоматик тарзда ўчириш ва ёнғин сигнализацияси қурилмаларининг техник воситаларини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш ишлари жараёнида ушбу соҳада мавжуд бўлган кўрсатма ва норматив ҳужжатларда белгиланган талабларга риоя этиш, шу билан бирга ишлаб чиқариш ҳужжатларини тузиш ва олиб бориш.</p>
10.	Изоҳ:	<p>* <i>Кўпол равишда бузиш деб ҳисобланадиган талаб ва шартлар.</i> ** <i>Монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ва техник хизмат кўрсатиш ишларини бажарувчилар, юридик шахснинг доимий штатда бўлиши, шу жумладан, ўзаро шартнома тузган ҳолда мутахассисларни ёки субпудрат ташилотларини жалб этиши мумкин.</i></p>

Yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi
qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini
boshlash yoki tugatish haqidagi xabarnomalarni "Litsenziya" AT orqali yuborish ketma-ketligi.
1-qadam. Tasdiqnoma olish uchun arizachining ma'lumotlarini kiritish

ADLIYA VAZIRLIGI
DAVLAT XIZMATLARI
AGENTLIGI

**Тасдиқнома олиш
учун ариза**

- Ариза №41250
- Ёнгини автоматик тарзда ўчириш ва ёнгини сигналлашчи қурилмаларини монтаж қилиш, соzлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш

10 та қадамнинг 1-чиси

Аризачи маълумотлари

• Ҳужжат тури
Фуқаро паспорти

• ЖШШИР
XXXX XXXX XXXX XX

• Исм
Искандар

Шариф

• Жинс
Эркак

Электрон манзил

• Паспорт серияси ва рақами
AA XXXXXX

• Фамилия
Нурматов

• Туғилган сана
08.03.1983

• Телефон рақам
+998 XX XXX-XX-XX

Бош sahифага Олдингиси Кейингиси

Отправлять нам сообщение juo

2-qadam. Tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar

АВЛАГА УЎЗЛАНДИ
ДАВЛАТ РАЙОНЛАРИ
АЖЕНТЛИГИ

Тасдиқнома олиш учун ариза

- Ариза №41250
- Биланни автоматик равишда ўзгариш ва ёнгин сўғиналарни қўриқувчи хўжалиқларнинг мўлжал қилиш, соғина, таъмирлаш қилмоқда уларга чекланган хизмат кўрсатиш

10 та қўлдаманинг 2-чиси

ТАШКИЛОТ МАЪЛУМОТЛАРИ

Юрidik шакли ҳақида маълумотлар

* Ташкилот СТИРн

* Ташкилот номи

* Фаслий турн

* Туман (шаҳар)

* Хўлуа

Шаҳарча / Қой

Ташкилий-ҳуқуқий шакл

Миллат

Телефон рақами

* Банк номи

* Банк коди

* Ташкилот ҳисоб рақами

Ташкилотнинг банк реқвизитлари

* Банк номи

* Банк коди

* Ташкилот ҳисоб рақами

Бўш саҳифа | Олдигисин | Қайтарсиз

Отправляете как сообщение

3-qadam. Faoliyat turlarini tanlash

ADLIYA VAZIRLIGI
DAVLAT XIZMATLARI
AGENTLIGI

Тасдиқнома олиш учун ариза

- Ариза №41250
- Ёнгинни автоматик тарзда ўчириш ва ёнгин сигнализацияси қурилмаларини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш

10 та қадамнинг 3-чиси

Фаолият турлари

Ёнгинни автоматик тарзда ўчириш ускуналарини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш фаолияти

Ёнгин сигнализацияси қурилмаларини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш фаолияти

Ёнгинни автоматик тарзда ўчириш ва ёнгин сигнализацияси қурилмаларини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш фаолияти ёки унинг бир қисми


Бош sahифага

Олдингиси

Кейингиси

Отправлять нам сообщение vivo

4-qadam. Faoliyat buyicha shug'ullanadigan ish rahbarining shaxsiy ma'lumotlarini kiritish



АШУМА Вазирлиги
Саломат соғлиқни таъминlash агентлиги

Тасдиқнома олиш учун ариза

- Ариза №41250
- Билгани асосидан ташдиқнома учун ариза берилган ҳолатда қўрилган аризаларнинг баъзи сифатларида қўрилган аризаларнинг мазмунини, қўрилган аризаларнинг мазмунини, қўрилган аризаларнинг мазмунини, қўрилган аризаларнинг мазмунини

10 та қўрилган 4-қисм

Раҳбар маълумотлари

Фавқийдагилар билан шуг'ullanadigan раҳбар маълумотлари

• Хужжат турини

Ташдиқнома

• ЖШШР (қўрилган учун паспорт сервис ва рақами (қўрилган учун ЖШШР ҳам қўрилган керак))

• Паспорт сервис ва рақами (қўрилган учун ЖШШР ҳам қўрилган керак)

• Исми

• Фамилияси

Шарқини

• Жинси

Телефон

Электрон мазлими

Иш жойи

Ходимнинг иш жой маълумотлари "Ишончлиқ меҳнат ташкили" оралиги асосидан олинган. Ходимнинг маълумотлари ишончлиқ ташкилида бўлмаганда ушунга бўлиши керак.

• Лавозими

• Бурувчи рақами

• Меҳнат шартномаси тасдиқловчи ҳужжатнинг саниланган нусخаси

Файлни тасдиқлаш

Отириштириш ва қўрилган аризалар

5-qadam. Faoliyat bo'yicha shug'ullanadigan ish rahbarining ta'lim to'g'risidagi ma'lumotlar va ilova qilinadigan (yuklanadigan) tegishli hujjatlar elektron shaklda (PDF, PNG yoki JPEG formatda) kiritish

ADLIYA VAZIRLIGI
DAVLAT XIZMATLARI
AGENTLIGI


Тасдиқнома олиш учун ариза

- Ариза №41250
- Ёнгини автоматик тарзда ўчириш ва ёнгин сигналзацияси қурилмаларини монтаж қилиш, соzлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш

10 та қадамнинг 5-чиси


Раҳбар таълим маълумотлари

Фаолият билан шуғулланадиган раҳбар маълумотлари
Таълим муассасасининг номи, Дипломнинг серия ва рақами, Диплом рўйхатдан утган санаси, Мутахассислиги, Давлат, Ҳушга қабул қилинган йили, Ҳушни тугатган йили, Дипломнинг сканерланган нусхаси



Ҳужжатларнинг нострификацияси тўғрисидаги маълумотлар
Ҳужжатнинг серияси ва рақами, Ҳужжатнинг сканерланган нусхаси

Малака оширганлиги тўғрисидаги маълумотлар
Малака оширганлиги тўғрисидаги гувоҳноманинг рақами, Малака оширганлиги тўғрисидаги гувоҳноманинг санаси, Ҳужжатнинг сканерланган нусхаси



Отправлять нам сообщение juvo

6-qadam. Yuridik shaxsining faoliyat olib boradigan manzilini ko'rsatish (kadastr raqami orqali)



ADLIYA VAZIRLIGI
DAVLAT XIZMATLARI
AGENTLIGI

Тасдиқнома олиш учун ариза

- Ариза №41250
- Ёнгини автоматик тарзда ўчириш ва ёнгин сигналзацияси қурилмаларини монтаж қилиш, созлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш

10 та қадамнинг 6-чиси

Фаолият манзили

Фаолият олиб бориш манзили
Кадaстр маълумотлари, Кадaстр рақами, Фаолият кўрсатиш манзили, Худуд, Туман (шаҳар), Шаҳарча / ҚФЙ, Кўча, уй, хонадон, Харита, Эгаллик ҳуқуқи, Ихжара шартномасининг сканерланган нусхасини юклаш

Қўшиш

Бош саҳифага Олдингиси Кейингиси

Отправьте нам сообщение vivo

7-qadam. Faoliyat buyicha shug'ullanadigan ish bajaruvchilar to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlarni kiritish



Тасдиқнома олиш учун ариза

- Ариза №41250
- Ёнгилини автоматик тарзда ўчирдиш ва ёнгилини автоматик тарзда қўриқмалигини мониторинг қилиш, соғлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш

10 та қадамнинг 7-чиси

Иш bajaruvchilar

Бош саҳифага Олдингиси Кейингиси

Ходимларнинг шахсий маълумотлари

Хужжат тури, ЖШШИР (қидириш учун паспорт серияси ва рақами (қидириш учун ЖШШИР ҳам киритилиши керак), Исми, фамилияси, Шарифи, Тугилган санаси, Жинс, Телефон рақами, Электрон рақами, Иш жойи, Лавозими, Иш жойи булими, Буйруқ рақами, Буйруқ санаси)

Кўриш

Отправьте нам сообщение vivo

8-qadam. Faoliyat buyicha shug'ullanadigan ish bajaruvchilarning ta'lim to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish



Тасдиқнома олиш учун ариза

- Ариза №41250
- Ёнгини автоматик тарзда ўчириш ва ёнгини сигналзацияси қурилмаларини монтаж қилиш, соғлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш

10 та қадамнинг 8-чиси

Иш bajaruvchi ходимлар маълумотлари

Бош саҳифага

Олдингиси

Кейингиси

Ходимларнинг таълим маълумотлари

Иш bajaruvchi ходим, Таълим муассасасининг номи, Дипломнинг серия ва рақами, Диплом рўйхатдан ўтган санаси, Мутахассислиги, Давлат, Ўқишга қабул қилинган йили, Ўқишни тугатган йили, Дипломнинг сканерланган нусхаси, Нострификация гувоҳномасининг маълумотлари, Хужжатнинг серияси ва рақами, Хужжатнинг сканерланган нусхаси, Малака оширганлиги тўғрисидаги маълумотлар, Малака оширганлиги тўғрисидаги гувоҳноманинг рақами, Малака оширганлиги тўғрисидаги гувоҳноманинг санаси, Хужжатнинг сканерланган нусхаси

Кўшиш

Отправлять нам сообщение

juvo

9-bosqich. Talab va shartlar (tanishib chiqib so'ngra belgilash zarur)



Тасдиқнома олиш
учун ариза

- Ариза №41250
- Ёнгини автоматик тарада ўчирish ва ёнгини сигнализацияси куррилмаларини монтаж қилиш, соzлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш

10 та қадамнинг 9-чиси

Талаблар ва шартлар

Бош сазифага Олдингиси қабул қиламан

Мазкур арзанинг натижаси буйича сизга лицензия ва рухсат берувчи хужжатлари тақдим этилса ёки фаолиятни бошлаш юзасидан хабардор қилаётган бўлсангиз, фаолиятингизни амалга ошириш давомида қуйидаги талаб ва шартларга қатъий амал қилишингиз лозимлигини маълум қилган ҳолда ушбу талаблар бажарилмаганлик ҳолати аниқланганда эса қонунчиликка мувофиқ жавобгарликка тортиш чораси кўрилиши мумкинлиги ҳақида эслатиб ўтаимиз:

Юридик шахснинг доимий штатида электроника ва асбобсозлик, информатика ва ахборот технологиялари ва электротехника соҳасида "муҳандислик" йўналиши буйича олий маълумотга, шунингдек ушбу йўналишлар буйича камда уч йил иш стажига ҳамда ёнгини автоматик тарада ўчирish ва ёнгини сигнализацияси куррилмаларини монтаж қилиш, соzлаш, таъмирлаш ва уларга техник хизмат кўрсатиш йўналишлари буйича махсус тайёргарликга эга бўлган ишларнинг раҳбари мавжуд бўлиши

Ишлар раҳбари тегишли ихтисослик буйича ҳар тўрт йилда камда бир мартаба махсус тайёргарликдан ўтиб малакасини ошириши ва буни тасдиқловчи тегишли хужжатга эга бўлиши.

Иш бажарувчилар қуйидаги тегишли малака, касб-ҳунар, техник маълумот(га) ёки йўналиш буйича махсус курсларни тугатганлиги тўғрисида хужжатга эга бўлишлари шарт: ёнгини автоматик тарада ўчирish монтаж қилиш, соzлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш йўналиши буйича: қўлда электр пайвандловчи (газ билан пайвандловчи) ёки санитария-техник ускуналари монтаж қилувчи, 4-разряддан паст бўлмастлиги; ёнгини сигнализацияси куррилмаларини монтаж қилиш, соzлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат кўрсатиш йўналиши буйича: электроника ва электротехника соҳасида 3-разряддан паст бўлмастлиги.

Юридик шахс доимий штатида бўлган ёки айрим ишларни бажарish учун ўзaro шартнома тузиш орқали жалб этилаётган субдудрат ташкилот мутахассисни тегишли касб-ҳунар ёки техник маълумоти ва малакаси буйича разрядини кўрсатиб ўтиши.

Хабардор этиш тартибидagi фаолиятни амалга ошириш учун қуйидаги моддий-техника база, асбоб-ускуналар ва бошқа техник воситаларнинг мавжуд бўлиши: комбинациялаштирилган прибор (курилма маркаси кўрсатилсин),

мегометр(курилма маркаси кўрсатилсин); шумомер (курилма маркаси кўрсатилсин); электр кавшарлагич (электротопальник); электр перфоратор; электр пирмадаста (электродрел); чилангар асбоблари тўплами; электр монтаж асбоблари тўплами; монтаж қилувчининг каскаси; монтаж қилувчининг белбоғи; напелы, икки ёкка ошпазалигы напелы, компрессор, ёнгини автоматик тарада ўчирish фаолиятни учини талбиқ этилаши, лойиқа амалга ўжжатламини г.ш.

Отправить нам сообщение

juvo

10-bosqich. Tasdiqнома olish uchun to'lovni amalga oshirish



ADOLTA VAZIRLIGI
DAVLAT XIZMATLARI
AGENTLIGI

Tasdiqнома olish uchun ariza

10 ta qadaming 10-chisi

- Ariza №41250
- Eнгини автоматик тарзда ўчирдиш ва ёнгини сигналizatsiya курилмаларини монтаж қилиш, соzлаш, таъмирлаш ҳамда уларга техник хизмат курастиш

Тўлов

Тўлов ҳолатини текшириш

Олдингиси

Бош саҳифага

Орқали тўлаш:

Онлайн банк

Банк кассаси орқали

Пластик карта

АРИЗА РАҚАМИ 41250		ВИДПРИНИМА 2022-01-20	Давлат хизматлари маркази - Yuliusobod tumani
			Қабул қилувчи номи: Молия Вазирлиги Ягона Гаина ҳисобвараги
			Ҳисоб рақамлари: 2340 2000 3001 0000 1010
			Шахсий ҳисоб рақами: 40142 26606 26266 34224 81255
			Банк коди: 00014
			Тўлов маълумотлари: ID: 80989318454515, Yung'in avtomatik o'chirish va yung'in signalizatsiya tizimlarini o'rnatish, sozlash, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishni boshlash yoki tugatish to'g'risida xabar berish uchun yig'im - AIS Litsenziyasi, "O'ZBEKISTON RESPUBLIKAS
			Тўловни амалга ошириш усуллари: 1. Тўлов тизимларида (Уруғ, Click, Рупе ва бошқалар) Давлат хизматлари агентлиги" хизмати орқали; 2. Юридик шахслар томонидан пул ўтказиш йўли орқали. Бу йўлда Тўлов мақсадига инвент рақам киритиш зарур. инвент рақамлар орқали ва хабар бериш жўли қўйиб олади. Маълумот ID: 80989318454515, "Yung'in avtomatik o'chirish va yung'in signalizatsiya tizimlarini o'rnatish, sozlash, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishni boshlash yoki tugatish to'g'risida xabar berish uchun yig'im - AIS Litsenziyasi, "O'ZBEKISTON RESPUBLIKAS 3. Банк кассалари орқали, "МУНИС" тизимида Тўлов 0204 хизмати орқали амалга оширилиши мумкин.
ТўЛАНМАГАН	ИНВЕНТ РАҚАМИ 8098 9318 4545 15	ТўЛОВ СУММАСИ 135 000 сўм	

Отправить нам сообщение

Yivo

28

MUNDARIJA

1.	Kirish.....	3
2.	I-bob. Umumiy qoidalar.....	4
3.	II-bob. Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talab va shartlari.....	6
4.	III-bob. Xabarnoma yuborish va uni xisobga olish tartibi.....	7
5.	IV-bob. Faoliyatni nazorat qilish tartibi.....	9
6.	V-bob. Xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatini to'xtatish, qayta tiklash va tugatish tartibi:	10
	§-1. Faoliyatni to'xtatish	10
	§-2. Faoliyatni qayta tiklash.....	11
	§-3. Faoliyatni tugatish.....	12
7.	VI-bob. Vakolatli organ va ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish va uni ko'rib chiqish tartibi.....	14
8.	VII-bob. Yakunlovchi qoidalar.....	14
9.	1-ilova. "Litsenziya" AT orqali avtomatik tarzda shakllantiriladigan, matritsali shtrix kodga (QR-kod) ega bo'lgan tasdiqnoma.....	16
10.	2-ilova. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 25 fevraldagi 88-son qarori bilan tasdiqlangan yagona Nizomga 9-ilovasida keltirilgan faoliyat pasporti.....	17
11.	3-ilova. Yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini boshlash yoki tugatish haqidagi xabarnomalarni "Litsenziya" AT orqali yuborish ketma-ketligi.....	19-28

Djurayev Sobir Mirzayevich
Tursunov Rovshan Xasildjanovich
Muxitdinov Bahrom Baxodir o'g'li

**“YONG‘INNI AVTOMATIK TARZDA O‘CHIRISH VA YONG‘IN
SIGNALIZATSIYASI QURILMALARINI MONTAJ QILISH, SOZLASH,
TA‘MIRLASH HAMDA ULARGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH FAOLIYATINI
BOSHLAGANLIK YOKI TUGATGANLIK HAQIDA XABARDOR QILISH
BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYANOMA”**

(Uslubiy tavsiyanoma)

Texnik muharrir: S.D.Najimov

Bosishga 10.08.2023 yilda ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 210x297. O‘lchami A5.
Garnitura Arial. Ofset bosma.
Birinchi nashr
Adadi 80 dona.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Fuqaro muhofazasi instituti
Tahririyot-noshirlik bo‘limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Anaybuloq ko‘chasi 3-uy.
Tel: (71) 266-50-36, 71 230-40-23.